

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DJO‘RABOYEVA XILOLA SHUHRATOVNA

**AN‘ANAVIY SUVDAN FOYDALANISH MADANIYATINING
EKOLOGIK-GEOGRAFIK JIHATLARI (FARG‘ONA VODIYSI
MISOLIDA)**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

UDK: 911.3:30:911.37 (575,1)

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Djo'raboyeva Xilola Shuhratovna

Ан'анавий сувдан фойдаланиш маданиятининг экологик-географик jihatlari
(Farg'ona vodiysi misolida).....3

Джурабоева Хилола Шухратовна

Эколого-географические аспекты культуры традиционного водопользования
(на примере Ферганской долины)21

Djuraboeva Khilola Shukhratovna

Ecological-geographical aspects of traditional water use culture (on the example of
Ferghana Valley).....41

E'lonqilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DJO‘RABOYEVA XILOLA SHUHRATOVNA

**AN‘ANAVIY SUVDAN FOYDALANISH MADANIYATINING
EKOLOGIK-GEOGRAFIK JIHATLARI (FARG‘ONA VODIYSI
MISOLIDA)**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Gr242 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Isayev Akbarjon Abdulxamidovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Qo‘ziboyeva Ozodxon Maxmudovna
geografiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 29 oktyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ ___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagii ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyati oldida turgan global muammolardan biri chuchuk suv yetishmasligi bo'lib, bugungi kunda dunyo aholisining 2 milliarddan ortig'i toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Arid iqlimli mintaqalarda mazkur muammo birinchi darajali masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bunday hududlarda suv taqchilligini oldini olish va undan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida BMTning 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish dasturida belgilangan maqsadlar orasida «Cheklangan suv resurslaridan unumli foydalanish va bu resurslarni ifloslanishdan himoya qilish uchun yangi texnologiyalar, jumladan, mahalliy texnologiyalarni takomillashtirish zarur» ekanligi aytilmoqda¹. Shu sababli, mahalliy aholining mintaqani tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy o'ziga xosligini e'tiborga oluvchi, unga asrlar davomida moslashib borishni ta'minlagan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ekologik-geografik xususiyatlarini majmualari hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo xalqlarining suvdan foydalanishga yo'naltirilgan ko'nikma, malaka, odat va ta'qiqlarni o'zida mujassamlashtirgan an'anaviy madaniyatining ilmiy asoslarini mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada havzali boshqaruv tizimini tashkil etish, hududga mos keluvchi gidrotexnik inshootlarni qurish, transchegaraviy suv resurslarini adolatli taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish va suv ob'ektlarini muhofaza qilish hamda rekreasiya va turizm to'rini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga yo'naltirilgan qator tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra qabul qilingan «O'zbekiston-2030» strategiyasining 62, 63 va 64-maqsadlarida respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, irrigatsiya tizimi va suv tejoychi texnologiyalarni rivojlantirish yuzasidan muhim vazifalar belgilangan². Mazkur vazifalarni hal etishda, asrlar davomida mintaqadagi cheklangan suv resurslaridan «suv-bu hayot» tamoyili asosida, uning bir qatrasini ham isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka asoslangan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatini o'rganish va innovatsion g'oyalar bilan boyitish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, 1993 yil 6 maydagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, 2001 yil 30 avgustdagi «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi

¹Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>;

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегиясига таърифи ПФ-158-сон Фармони. <https://lex.uz>

Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-6024-son, 2021 yil 6 apreldagi «Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi ob‘ektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6200-son Farmonlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish», VIII. «Yer haqidagi fanlar» yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon xalqlarining an‘anaviy tabiatdan, shu jumladan, suvdan foydalanish madaniyatini ijtimoiy-geografik jihatlari xorijlik olimlardan F.Ratsel, J.E.Reklyu, L.I.Mechnikov, K.O.Zauer, G.K.Konklin, J.X.Styuard, U.Zelinskiy, MDH mamlakatlari olimlaridan L.S.Berg, V.G.Bogaraz-Tan, B.V.Andrianov, V.I.Kozlov, L.N.Gumilev, K.P.Ivanov, A.G.Drujinin, Y.A.Vedenin, V.N.Kalutskov, K.B.Klokov, A.I.Chistabayev, I.Y.Gladkiy, M.V.Ragulina va boshqalarning ishlarida keltirilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi suv resurslari va bu yerda yashovchi xalqlarning suvdan foydalanish an‘analari to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy-siyosiy maqsadlarda tashkil etilgan ekspeditsiyalarning hisobotlarida va ayrim tadqiqotchilarning asarlarida aks etgan. Bu davrda nashr etilgan ishlarda mintaqada shakllangan xonliklarning geografik o‘rni, tabiiy sharoiti, boylklari, ma‘muriy boshqaruv tizimi, xalqlarning turmush tarzi va xo‘jalik yuritish an‘analari bilan birga, yirik daryolari va ulardan chiqarilgan irrigatsiya tizimlari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Turkiston o‘lkasi, jumladan, Qo‘qon xonligi suv manbalari va ulardan foydalanish an‘analari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar V.V.Velyaminov-Zernov (1856 y.), A.P.Fedchenko (1875 y.), L.F.Kostenko (1880 y.), V.V.Radloff (1880 y.), A.F.Middendorf (1882 y.), V.P.Nalivkin (1886 y.), V.I.Kushelevskiy (1890 y.), V.I.Masalskiy (1913 y.), V.V.Bartold (1914 y.), A.I.Voyeykov (1915 y.) kabi olimlarning asarlarida berilgan. Bunda asosiy e‘tibor suv resurslari miqdorini o‘rganish, yangi irrigatsiya inshootlarini barpo etish, sug‘oriladigan maydonlar va sug‘orish tizimlarini kengaytirish, suvdan maksimal foydalanish kabi maqsadlarga qaratilgan. Biroq, mahalliy aholi tomonidan yaratilgan suvdan foydalanish tizimining tabiiy geografik jihatlari, sug‘orishning hudud ekologiyasiga ta‘siri, suvdan foydalanishni boshqarishning ijtimoiy masalalari yuqoridagi olimlar tomonidan alohida e‘tirof etilsada, ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

Xalqimizning suv resurslaridan foydalanish an‘analarini ijtimoiy hamda geografik jihatlari keyinchalik turli soha olimlari tomonidan tadqiq etildi. Jumladan, N.L.Korjenevskiy, V.L.Shults, S.P.Tolstov, A.Azatyanyan, H.X.Xasanov, R.U.Rahimbekov, A.A.Rafiqov, Y.G‘.G‘ulomov, I.Jabborov, X.A.Axmedov,

A.R.Muhammadjonov, U.Abdullayev, R.Baliyeva, A.S.Soliyev, F.H.Hikmatov, G'.X.Yunusov, N.Q.Komilova va boshqa bir qator olimlarning asarlarida Markaziy Osiyo xalqlarining suvdan foydalanish madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi.

Farg'ona vodiysi geografik jihatdan ancha mukammal darajada tadqiq etilgan. Tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilishga doir tadqiqotlar vodiyni har bir viloyati va tumanlarini qamrab olgan. Farg'ona vodiysidagi suv manbalari va suvdan foydalanishning ijtimoiy-ekologik va geografik jihatlari I.A.II'in, R.Ya.Rassudova, S.S.Gubayeva, S.Jalilov, A.Abdulxamidov, B.Matboboyev, A.A.Ashirov, Yu.I.Ahmadaliyev, Z.Isoqov, N.O'.Komilova, P.S.Otaqulov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda masalaning geografik, gidrologik, toponimik, tarixiy-arxeologik, etnologik va etnoekologik jihatlariga ko'proq ahamiyat qaratilgan. Biroq, chor Rossiyasi istilosiga qadar bo'lgan davrda mintaqimizda shakllangan suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida to'plangan ko'p asrlilik an'analar, ya'ni, madaniyatning ijtimoiy-ekologik va geografik jihatlari ilmiy tadqiq etilmadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-7-29 raqamli «Farg'ona vodiysi tabiiy resurslari, ulardan oqilona foydalanish va yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish yo'llari» (2019-2023) amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysi aholisining suvdan foydalanish sohasidagi an'anaviy madaniyati asosida suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-ekologik va geografik jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Faqat iqtisodiy samaradorlik ko'zda tutiladigan, resurslardan foydalanish hajmini ko'paytirib borishga asoslangan suvdan foydalanish tamoyilidan farqli ravishda, kompleks geografik yondashuv asosida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ijtimoiy va ekologik-geografik jihatdan samarali tomonlarini ochib berish asosida sohani takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Farg'ona vodiysidagi an'anaviy usullarda tashkil etilgan gidrotexnik inshootlar (ariq, kanal, quduq, koriz, sardoba)ning suv resurslarini tejash, joyning tabiiy va gidrologik sharoitiga mos kelishi va to'yinishida manbalarning gidrometeorologik xususiyatlari e'tiborga olinganligini aniqlash;

suvdan foydalanishda havzali boshqaruv tizimining suvni tejash, gidrotexnik inshootlarning shay holda bo'lishini ta'minlashdagi afzalliklarini ochib berish, ma'muriy-hududiy boshqaruvni daryo havzalari bo'yicha o'tkazilganligini ko'rsatuvchi karta-sxema ishlash;

transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda, janjal-mojarolarsiz, navbatlashib foydalanish madaniyatining tarixiy-geografik, diniy-huquqiy asoslarini aniqlash;

suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni suv ob'ektlariga nom berish bilan bog'liq an'alarini saqlash, avloddan-avlodga yetkazish mexanizmlarini ochib berish;

mintaqada suv havzalari yaqinidagi an'anaviy ziyorat va gastronomik turizm sohalarini rivojlantirish madaniyatining gidrologik, iqlimiy jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning ob'ekti Farg'ona vodiysida shakllangan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ijtimoiy-ekologik va geografik jihatlarini hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Farg'ona vodiysida shakllangan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ijtimoiy-ekologik va geografik jihatlarini hisobga olgan holda, suv resurslaridan foydalanish usullarini takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada adabiyotlar bilan ishlash, kuzatish, kartografik, qiyosiy-geografik, tarixiy qiyoslash, toponomik, ekspeditsiya, etnoekologik, havzali yondashuv, rayonlashtirish, tizimli tahlil, statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kompleks geografik yondashuv asosida jahondagi qurg'oqchil mintaqalarda yashovchi mahalliy xalqlar tomonidan yaratilgan, asrlar davomida tabiatga moslashish yo'nalishida takomillashib borib, mintaqalar farovonligini ta'minlagan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik-geografik jihatdan samarali tomonlari ochib berilgan;

Farg'ona vodiysining tabiiy-geografik, gidrologik xususiyatlarini va gidrometeorologik taqvimni e'tiborga olib, daryo rejimini suv omborlarisiz sug'orish mavsumiga moslash, suvni eng kam isrof (bug'lanish va shimilish sababli) bo'lishini ta'minlaydigan gidrotexnik inshootlar (ariq, kanal, quduq, koriz, sardoba) qurish va kamsuvtalab ekin turlarini tanlash, tuproqdagi namlikni saqlashning o'ziga xos usullarini joriy etish mintaqada uzoq vaqt iqtisodiy taraqqiyot hamda ekologik muvozanatni saqlashga olib kelganligi asoslangan;

suvdan foydalanishda havzali boshqaruv tizimining joriy etilganligi suvni havzaning butun hududiga bir tekisda, sug'oriladigan yerlar miqdoriga mos ravishda taqsimlash, gidrotexnik inshootlarning doim shay holda bo'lishini ta'minlash, transchegaraviy suvlardan foydalanishdagi tortishuvlarning oldini olish imkonini berganligi aniqlangan, ma'muriy-hududiy bo'linishni sug'orish tizimi bo'yicha o'tkazilganligini ko'rsatuvchi karta-sxema ishlangan;

suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq an'analarni saqlash, avloddan-avlodga yetkazish, suv ob'ektlaridagi o'zgarishlarni monitoring qilishning toponimik, axloqiy-huquqiy mexanizmlari, suv havzalari yaqinidagi an'anaviy ziyorat va gastronomik turizmni rivojlantirish madaniyatining gidrologik, iqlimiy jihatlarini ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysidagi suv resurslaridan foydalanish va boshqarishning hududiy tarkibini tabiiy va ijtimoiy-ekologik talablar asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Suv resurslaridan tejamli foydalanish va hududlar o'rtasida teng asosda taqsimlanishini ta'minlash maqsadida gidrotexnik inshootlar qurishni mintaqaning tabiiy va gidrologik sharoitini, hududlar ehtiyojini hisobga oluvchi tarixiy suvdan foydalanish usullari ochib berilgan;

Suv ob'ektlarini shay holda ushlab turish, tozaligini ta'minlashda toponimlarning ekologik funktsiyasi va diniy-axloqiy qadriyatlarni qo'llash suvdan tejamkorlik asosida foydalanish ko'nikmalari shakllangan, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda an'anaviy suvdan foydalanish madaniyati namunalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati markazi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar ilmiy-asoslangan manbalardan olinganligi, arxiv va fond materiallaridan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Yer sharining arid mintaqalarida suv resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida vujudga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning etnomadaniy va etnogeografik ildizlari mavjudligi, bugungi suv bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda madaniy geografik yondashuvning ahamiyatli ekanligi bilan izohlanadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, avvalo, olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan Farg'ona vodiysida suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek, aholining keng qatlamini suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, ta'lim tizimida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ekologik-geografik jihatlaridan samarali foydalanish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kompleks geografik yondashuv asosida qurg'oqchil mintaqalarda an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ekologik-geografik va axloqiy-madaniy jihatlarini ifodalovchi, suvdan foydalanuvchilarining suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish uchun javobgarligini kuchaytirish dasturlaridan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 19-martdagi 03/17-981-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda suvdan samarasiz foydalanishning salbiy oqibatlarini tushuntirish va suvdan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyat va javobgarlikni oshirish imkonini bergan;

Farg'ona vodiysining tabiiy-geografik, gidrometeorologik va gidrologik xususiyatlarini e'tiborga olib, daryo rejimini sug'orish mavsumiga moslash, suvning eng kam isrof bo'lishini (bug'lanish va shimilish sababli) ta'minlovchi inshootlar (ariq, kanal, quduq) qurish va kamsuvtalab ekin turlarini tanlash,

tuproqdagi namlikni saqlashning o'ziga xos usullari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 19-martdagi 03/17-981-son ma'lumotnomasi). Natijada, har bir mintaqaning gidrologik imkoniyatlaridan unga mos holda foydalanish, aholini turli maqsadlarda suv bilan ta'minlashning geografik axborot tizimlarini yangilash, kamsuvtalab ekinlarni joylashtirish imkonini bergan;

suvdan foydalanishda havzali boshqaruv tizimining joriy etilishi suv resurslarining havzani butun hududiga bir tekisda, sug'oriladigan yerlar miqdoriga mos ravishda taqsimlash, gidrotexnik inshootlarning doim shay holda bo'lishini ta'minlash, transchegaraviy suvlardan foydalanishdagi tortishuvlarning oldini olish imkonini bergan madaniyat namunalari va shu asosda ishlangan xaritadan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 19-martdagi 03/17-981-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududlarda suv resurslarining havza tamoyili va butun vertikal bo'ylab samarali boshqarish, kelajakda amaliyotga kichik daryolarda gidrografik boshqaruv tizimini amalga oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish imkonini bergan;

suvdan oqilona foydalanish, monitoring qilish, muhofaza qilish an'alarini saqlashni avloddan-avlodga yetkazishning axloqiy-huquqiy mexanizmlari va Farg'ona vodiysi suv ob'ektlarida turizm sohalarini rivojlantirish rejalaridan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 19-martdagi 03/17-981-son ma'lumotnomasi) Natijada, Farg'ona vodiysi suv ob'ektlaridagi o'zgarishlarni monitoring qilish, ular yaqinidagi ziyorat va gastronomik turizm ob'ektlarini rivojlantirish, aholining suvdan foydalanish madaniyati darajasini oshirish imkoniyatlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha ishlar 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi va uning mazmuniga oid 25 ta ilmiy maqola va tezislar e'lon qilingan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 sahifa, shundan matn qismi 114 betni tashkil qiladi. Ishda 3 ta karta-sxema, 5 ta rasm, jadval va ilovalar mavjud.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, metodlari tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari

bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatini geografik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida insoniyatning etnik jihatdan boy va xilma-xilligi bevosita ular yashaydigan hududlarning tabiiy, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishi jihatidan turlichaligi ta'sirida shakllanganligi ta'kidlanadi. Har bir hududning bunday o'ziga xosligi shu yerda shakllangan etnos uchungina xos bo'lgan madaniyatning rivojlanishiga sharoit yaratadi. V.G.Bogaraz-Tan (1928) ta'kidlaganidek, ma'lum hududda yashovchi «mahalliy aholi madaniyatiga nazar tashlasak, hatto eng qoloq xalqlar ham o'zi yashab turgan atrof-muhitga mukammal darajada moslashgan, takrorlanmas madaniy qadriyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin». Huddi shu yerda tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni dastlabki ko'rinishi sifatida landshaft bilan etnos o'rtasida uzviy aloqalar yuzaga keladi. Bir landshaftda uzoq vaqt yashagan etnosning tabiatdan foydalanish hamda xo'jalik yuritish an'analari muqim holatga keladi va madaniy qadriyat darajasiga ko'tariladi.

Madaniyat hodisasini ifodalash uchun G'arb mamlakatlarida qo'llaniladigan «culture» so'zi lotinchadan olingan bo'lib, dastlab «yerga ishlov berish», «dehqonchilik mehnati» ma'nolarini anglatgan bo'lsa, keyinchalik u orqali insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ifodalandi. Sharqda, xususan, turkiy xalqlarda qo'llaniladigan «madaniyat» atamasi arab tilidagi «مدينة» («madina») so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shaharga xos», «shaharga oid» degan ma'nolarni bildiradi. O'zbek tilidagi madaniyatshunoslikka oid adabiyotlarda madaniyatning quyidagi ta'rifi keng tarqalgan: «Madaniyat an'alar, ramzlar, til, bevosita taqlid qilish va amaliy o'rganish orqali insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, to'playdi, saqlaydi, doimiy ravishda boyitib boradi va kelgusi avlodlarga yetkazib beradi». Joyning tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari ta'sirida shakllangan umumiy madaniyatning mintaqaviy turlari ham mavjud. Bunday madaniyat, ko'pincha, an'anaviy yoki mahalliy madaniyat shaklida namoyon bo'ladi va quyidagicha ta'rif beriladi: «Turli etnos namoyandalari, ya'ni bir necha avlod vakillari tomonidan asrlar mobaynida yig'ilgan va har bir avlodning o'rgatilishi natijasida unutilib ketmagan an'ana va urf-odatlar an'anaviy madaniyat deyiladi». A.G.Drujinin (1999) madaniyatga quyidagicha ta'rif beradi: «Yer sayyorasi uchun xos bo'lgan har qanday hodisa kabi madaniyat ham hududiydir, ya'ni, geografik omilning keng miqyosdagi ta'sirini boshdan kechiradi, makon jihatdan farqlanadi, o'ziga xos ko'rinishlarda tashkil etiladi va immanent (ichki) hududiy shakllarda rivojlanadi». Geograflar tomonidan madaniyat muammosini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu tadqiqotlarda yaratilgan tamoyil va ta'limotlar geografiya bilan bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar (ekologiya, etnologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va b.) chorrahasida madaniyat geografiyasi, etnogeografiya, etnometeorologiya, etnoekologiya kabi yangi ilmiy yo'nalishlarning shakllanishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari,

jumladan, O'zbekistonda madaniyat geografiyasi hamda etnoekologiya yo'nalishlarida madaniyat mavzusi ilmiy jihatdan keng va chuqur tadqiq etilmoqda.

Har qanday jamiyatning madaniy taraqqiyotida geografik omillarning roli borligi o'z davrida ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan. V.A.Anuchin (1982) ta'biri bilan aytganda, mazkur omillar jamiyat rivojlanishining sabablarini emas, balki ushbu taraqqiyot sharoitlarini belgilaydi. Geografik omillarning ta'sirisiz nafaqat rivojlanish, balki insoniyat jamiyatining mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Qadimda geografik sharoiti qulay bo'lgan va aholisi bu imkoniyatdan oqilona foydalangan hududlardagina aholi maskanlari, davlatlar paydo bo'lgan, ular uzoq vaqt saqlanib qolgan va rivojlangan. Bizning o'lkamizga o'xshash arid iqlimli mintaqalarda geografik sharoitni belgilovchi bosh omil sifatida joyning suv bilan ta'minlanishi olingan.

Suvdan foydalanish madaniyati shakllanishining tarixiy-geografik ildizlari eramizdan avvalgi VI-III ming yilliklarda vujudga kelgan qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xarappa va Xitoy sivilizatsiyalariga borib taqaladi. Bu madaniyatlarning o'ziga xos xususiyati, ko'plab tadqiqotchilar (L.I.Mechnikov, K.Vitfogel, A.K.Bisvas) ta'kidlaganidek, ularning beqaror suv rejimiga ega bo'lgan yirik daryolar bo'ylarida, arid iqlimli hududlarda paydo bo'lganligidir. Bunday tabiiy geografik sharoitda suv resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi ratsional texnologiyalarni izlash, suvni tejash va muhofaza qilish elementlari sifatida cheklovchi choralarni joriy etilishiga turtki bo'ldi. Bu yerlarda yirik shaharlar barpo etilishi bilan suvdan omilkor foydalanish maqsadida suv ta'minoti uchun mo'ljallangan gidrotexnik inshootlar ham vujudga kela boshladi.

Shunday qilib, dunyo miqyosida suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga geografik omillarning shubhasiz ta'siri mavjud. Bu omillardan geografik o'rin, iqlim, relyef, tuproq, gidrografik to'r kabilar har bir mintaqada alohida, o'ziga xos suvdan foydalanish tizimi va unga mos bo'lgan madaniyatni shakllanishiga sabab bo'lgan. Arid iqlimli hududlarda suvdan foydalanishning asosiy turi sifatida sug'orishning turli usullari o'ylab topilgan bo'lsa, geografik omilning tabiatdan foydalanishni bu turiga ehtiyoji yo'q hududlarda suvdan maishiy maqsadlarda foydalanish uchun yo'naltirilganligini ko'rish mumkin. Dunyodagi suvdan foydalanish madaniyatini tahlili asosida chiqargan xulosalarimiz bo'yicha aytish mumkinki, bu madaniyatning shakllanishida Markaziy Osiyo mintaqasi jahon miqyosida o'ziga xos va takrorlanmas o'rinni egallaydi.

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysida shakllangan an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining ekologik-geografik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishi bevosita tabiiy-geografik muhitning ta'siri ostida yuz berganligini asoslashga e'tibor qaratildi. Farg'ona vodiysi tabiatini dastlab o'rgangan xorijlik va rus olimlari uning sug'orib dehqonchilik qilish uchun qulayligini ta'kidlashadi. Birinchidan, Farg'ona vodiysining o'ziga xos geografik joylashuvi, hududning tog' tizmalari bilan o'ralganligi havo oqimlarini kirib kelishi va atmosfera yog'inlarini

hosil bo'lishi (Babushkin, 1985) Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga nisbatan qulay agroiklimiy sharoitni yuzaga keltiradi; Ikkinchidan, I.A.II'in (1959) ma'lumotlari bo'yicha vodiya 6,5 mingga yaqin katta va kichik daryolar bo'lib, ularning umumiy uzunligi 28 ming km. Boshqa arid iqlim mintaqalaridagi yirik daryolardan farq qilib, bu yerda qulay relyef tufayli yoyilmali oqimlar hosil qilgan kichik daryolardan ortiqcha harajatlarsiz foydalanish imkoniyati yuzaga keladi, bu holat jamiyatning suvdan foydalanishda inson imkoniyatlari cheklangan dastlabki davrlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi; Uchinchidan, Farg'ona vodiysidagi, xususan, janubdan oqib tushuvchi daryolar to'yinishi V.L.Shul'ts (1965) tasnifi bo'yicha ko'proq qor – muzlik, muzlik-qor, qor-yomg'ir turiga ega bo'lganligi sug'orma dehqonchilikda madaniy o'simliklarning vegetatsiya davrida suv bilan to'liq ta'minlash imkonini beradi, bu daryolarning to'linsuv davri bahor va yoz oylariga to'g'ri kelib, sug'orish mavsumida qulayliklar yaratadi; To'rtinchidan, R.Qo'ziyev (2004) bo'yicha o'ziga xos relyef, iqlim va gidrologik omillar ta'sirida Farg'ona vodiysida dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan unumdor bo'z tuproqlar mintaqasi vujudga kelgan. Albatta, bu ko'rsatkichlar vodiyning ichki hududlarida bir-biridan farq qilib, turli agrolandshaft rayonlarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur tabiiy imkoniyatlardan oqilona foydalanilishi tufayli Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilik miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalarida daryolarning yoyilmalarida tarqala boshladi. Daryolarning eski irmoqlari orqali kichik sug'orish kanallari qazilib, yangi yer maydonlari o'zlashtirildi, sug'orish texnikasi takomillashtirildi. Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida Farg'ona dunyoning gullab yashnagan sivilizatsiya markazlaridan biriga aylandi.


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy suvdan foydalanish tizimida yuzaga kelayotgan hozirgi ekologik-geografik muammolarga an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatida allaqachon yechimlar topilgan. Daryolar rejimini va to'rini sug'orish tizimiga bo'ysundirishga texnik inshoot hisoblangan suv omborlar, uzoq masofaga cho'zilgan kanallar qurish orqali emas, balki, daryolar suv rejimini puxta o'rganish asosida yaratilgan gidrometeorologik taqvimdan foydalanish hamda navbatlashib sug'orish tartibini qo'llash orqali erishildi. Daryolarning to'yinish turi hamda suv miqdori hisobga olinib, ortiqcha bug'lanish va shimilishni oldini olish maqsadida ulardan boshlanuvchi ariq va soylarning uzunligi, kengligi, nishabligi va chuqurligi oddiy nivelirovka usullari yordamida nazoratga olindi. Korizlardan foydalaniladigan hududlarda suv sug'oriladigan tekis yerlardagina yer betiga chiqarildi.

Farg'ona vodiysida qadimdan qor va muz erishidan hosil bo'ladigan daryo suvi tarkibidagi ildan tuproq unumdorligini yaxshilash maqsadida foydalanish bo'yicha o'ziga xos chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunday «oq suv» dehqonchilikda yuqori darajada qadrlangan. Bu suvning o'simliklar hosildorligiga ta'sirini bilgan Oltiariq aholisi Vodildagi suv taqsimotida ularga 10 kun miqdorida «oq suv» berishlarini talab qilganligi manbalarda saqlanib qolgan (Parfentyev, 1904). Hozirgi kunda Lisov va boshqalar (2007) tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, suv omborlarida tinib, tarkibidagi il cho'kib qoladigan suvdan farq qilib, muz va qorning erishidan hosil bo'lgan suv ekinlar

hosildorligini 1,5-2 baravar oshiradi. Tuproq eroziyasi va ikkilamchi sho'rlanishga qarshi chora-tadbirlarda qiya relyefga ega bo'lgan hududlarda bog'dorchilik va ildiz mevali ekinlar ekish, sho'rlashish xavfi yuqori bo'lgan hududlarda sho'rga chidamli va sho'rni yuvuvchi ekinlar ekish qoida tariqasida yo'lga qo'yilgan. Sho'rlanish va eroziyaga moyil bo'lgan hududlar haqidagi ma'lumotlarni kelgusi avlodga yetkazishda toponimlardan foydalanilgan. Masalan, Kuyganyor, Ko'kyor, Oqyer, Oqyor, Sho'rxok, Sho'rqishloq, Sho'rtepa, Yomonjar va boshqalar.

Suv resurslarini adolatli taqsimlash, barcha suvdan foydalanuvchilarning huquqlarini kafolatlash, suv tizimini boshqarish va suv inshootlarini yil davomida ishchi holatda turishini ta'minlash maqsadida vodiya o'ziga xos havzali boshqaruv tizimi va miroblik instituti joriy qilinganligi diqqatga sazovordir. Bugungi transhegaraviy va transhududiy suv taqsimlash muammolari, gidrotexnik inshootlarni doimiy shay holda bo'lishini ta'minlashda mazkur tizim nihoyatda foydalidir. Qo'qon xonligidagi ma'muriy boshqaruv tizimi to'lig'icha daryo to'riga moslashtirilganligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandi va birinchi marta Qo'qon xonligi (XIX asr oxiri)ning ma'muriy bo'linish karta-sxemasi ishlandi (1-rasm).

Yu.I.Ahmadaliyev (2021)ning yozishicha, tabiatdan foydalanishning etnoekologik nazariyasi bo'yicha har bir etnos muayyan bir hudud landshaftiga moslashadi, xo'jalik faoliyati orqali mazkur tabiiy muhitni ma'lum darajada o'zgartirib, «madaniy landshaft»larni va o'zi yashab turgan o'lkaning tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish usullarini yaratadi. Natijada tabiatdan o'z ehtiyojlari uchun uning muvozanatini buzmasdan, eng qulay uslublarni qo'llagan holda foydalanadi. O'z-o'zidan bu jarayon etnoslar (bir necha avlod) uzoq vaqtdan buyon yashab kelgan ma'lum geografik muhitda sodir bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan etnos-landshaft nisbati etnos uchun ham, landshaft uchun ham maqbul holatga keladi. Bu shuni anglatadiki, barqaror landshaft etnosni ham barqarorlashtiradi. Demak, etnos bir hududda uzoq vaqt yashasa, u o'sha hududga optimal moslashadi va qoidaga ko'ra, tabiiy muvozanatni buzmaydi. Asrlar davomida tabiatdan foydalanish va xo'jalik yuritishning faqatgina shu xalq uchun xos bo'lgan an'ana, malaka va urf-odatlarini, ya'ni etnoekologik madaniyatni shakllantiradi. Bu holat bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan ilgari surilayotgan barqaror rivojlanish tamoyillariga to'la mos tushadi. Farg'ona vodiysida bu jarayon XIX asrning oxirida eng yuqori nuqtasiga yetganligini A.F.Middendorf, V.P.Nalivkin, V.I.Masal'skiy, V.S.Batrakov, V.V.Bartold, R.U.Rahimbekov, A.Abdulhamidov, S.Jalilov kabi olimlar e'tirof etadilar. A.F.Middendorf Farg'ona oblastidagi obikor dehqonchilik madaniyati bilan amaliy tanishib, unga yuksak baho berdi: «Hozirda Yevropaning intensiv dehqonchiligi hal qilishga intilayotgan eng katta muammolar ...u yerda yarim ko'chmanchilar tomonidan deyarli eng oddiy usulda, allaqachon hal qilib bo'lingan». Biroq, bu olimlar Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqib fikr yuritdilar.



1-rasm. Farg'ona vodiysida ma'muriy bo'linishning suvdan foydalanish tizimiga moslashtirilishi (XIX asr oxiri) karta-sxemasi

A.F.Middendorf (1882) yuqorida ko'rsatilgan asarda dastlab «...biz bu ishni Sharq xalqlaridan o'rganishimiz kerak», deb yozgan bo'lsa, mazkur asarni oxirida «irrigatsiya ishlariga rahbarlikni tezroq qo'lga olish kerak», degan xulosaga keladi. Sug'orish ishlarida xatolik va yanglishishlar evaziga uch ming yillik tajriba to'plagan mahalliy aholi sug'orish ishlarini boshqarishdan chetga suriladi.

Dunyoning barcha mustamlaka o'lkalarida bo'lgani kabi bu tizimni boshqarish Markaziy Osiyoda ham L.N.Gumilev ta'biri bilan aytganda, «begona (ona landshaftga nisbatan) etnoslar» qo'lga o'tadi. Mazkur holat jumladan, o'ziga xos ko'rinishda Farg'ona vodiysida yashovchi etnoslarga ham tegishli bo'lib, XX asrda kuzatildi. Begona etnoslar mahalliy shart-sharoitni, tajriba va malakalarni o'rganishga e'tibor qaratmadi. Afsuski, bu holatning salbiy natijalari bugungi kunda ham o'zini namoyon qilmoqda.

Dissertatsiyaning «**Suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishda ma'naviy madaniyatning o'rni va ahamiyati**» deb nomlangan uchinchi bobida suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni suv ob'ektlariga nom berish bilan bog'liq an'alarini saqlash, avloddan-avlodga vorisligini ta'minlash mexanizmlari, aholining suvga munosabati va undan oqilona foydalanish tartibini ta'minlashning tashkiliy, diniy-huquqiy va axloqiy-ma'naviy jihatlari, suv havzalari yaqinidagi an'anaviy ziyorat va gastronomik turizm sohasini rivojlantirish madaniyatining gidrologik, iqlimiy jihatlari ochib berilgan.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida tabiiy sharoitga mukammal darajada moslashgan sug'orma dehqonchilik va suvdan foydalanish madaniyatini avloddan-avlodga uzatish mexanizmlaridan biri sifatida gidronimlardan foydalanib kelindi. Suv ob'ektlarini nomlash orqali ajdodlarimiz bugungi kundagi suv bilan bog'liq bo'lgan eng katta muammolardan biri, ya'ni, uni maishiy va xo'jalik chiqindilari bilan ifloslanishini oldini olishga harakat qilganlar. Har bir suv ob'ektiga uning «egasi» mavjudligini ta'kidlab turuvchi nom berishga harakat qilganlar. Bunda antropogidronimlar (Malavoy arig'i, Amirobod arig'i), etnogidronimlar (O'zbekariq, Juyiturkon, Qozoqariq, Uyg'ursoy) va topogidronimlar (Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Qo'qonsoy, Shahrixonsoy va boshqalar)dan foydalanilgan.

Suvni ariqlarga adolatli taqsimlash maskanlariga ham diniy-ilohiy nomlar qo'yilishi bu hududlarda suv uchun bo'ladigan janjallarni oldini olib, u yerlarda tartib-qoidalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlangan. Masalan, konussimon yoyilmalarning yuqori qismida, sug'orish kanallarining boshlanish joylarida joylashgan qishloqlardagi qadamjolarga ko'proq xo'ja, to'ra, said kabi diniy ulamolar nomi berilgan. R.Ya.Rassudova (1985) ularga Vodildagi Xoji ota, Chinor ota, Mozortagi hamda Sariqo'rg'ondagi Nursuh va Rishton kanallari boshlanadigan joylardagi G'ovsil A'zam mozori kabilarni kiritadi. Ular Shohimardon va So'x suvining «egalari» deb e'tirof etilgan.

Sharqda barcha diniy-axloqiy ta'limotlar, falsafiy qarashlar «landshaft-etnos-xo'jalik» tizimidagi o'zaro munosabatlarni belgilash, tabiiy mutanosiblikni saqlash, jamiyat va tabiat o'rtasida yuzaga kelgan murakkab muammolarni oqilona hal etish, bir so'z bilan aytganda, aholida etnoekologik madaniyatni

